

TADJIYEVA Umida

Al-Buxoriy universiteti o'qituvchisi

e-mail: umida.fayziyeva@mail.ru

ARAB VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA XALQ MAQOLLARINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИЗУЧЕНИЯ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ В АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

THEORETICAL BASIS OF STUDYING FOLK PROVERBS IN ARABIC AND UZBEK LANGUAGE

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek hamda arab xalq maqollarining o'rganilish tarixi, ushbu yo'ldagi olimlarning ilmiy ishlari yoritilib o'tilgan. Shuningdek, maqol atamasining yuzaga kelishi, uning ilk qo'llanilgan holati, hamda arab va o'zbek maqollarining to'plamlari va ularning mualliflari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Arab xalq maqollari faqat bir emas, bir necha arab davlatlariga tegishli bo'lganligi, ularning har bir davlatda o'ziga hosligi bilan xarakterlidir.

Kalit so'zlar. Savlashmoq, "Devoni lug'otit turk", Mufaddal ad Dabi, "Johiliya" davri, "Abbosiylar davri", "Kalila va Dimna", Masal, Mujarrad ad-Duriy.

Аннотация. В данной статье освещается история изучения узбекских и арабских народных пословиц, научные работы ученых в этом направлении. Также приводятся сведения о возникновении термина пословица, его первом употреблении, сборниках арабских и узбекских пословиц и их авторах. Тот факт, что арабские народные пословицы принадлежат не одной, а нескольким арабским странам, характеризуется их уникальностью в каждой стране.

Ключевые слова. Савлашмоқ, "Девони луготит турк", Муфаддал ад Даби, период «Джахилия», «период Аббасидов», «Калила и Димна», Масал, Мужаррад ад-Дури.

Annotation. This article covers the history of the study of Uzbek and Arabic folklore, the scientific work of scholars in this field. It also provides information on the origin of the term proverb, its initial use, and collections of Arabic and Uzbek proverbs and their authors. The

fact that Arab folk sayings belong to more than one Arab state is unique to each state.

Keywords. Savlashmoq, "Devoni lug'otit turk", Mufaddal ad Dabi, "Jahiliya" period, "Abbasid period", "Kalila and Dimna", Masal, Mujarrad ad-Duri.

KIRISH

Maqollar, matallar, naql va iboralar yillar osha tildan tilga ko'chib millatning madaniy me'rosiga aylangan xalq og'zaki ijodi na'munalari. Ushbu maqollarda xalqning nafaqat tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi balki ularning g'amu tashvishlari, orzu o'ylari ham o'z aksini topadi. Ushbu maqollarni o'qir ekanmiz biz o'sha xalqning madaniyati ichiga kirib boramiz va undan baxramand bo'lamiz. Maqollar xalq dunyoqarashi, ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon beruvchi milliy-madaniy birliklardir.

Xalq og'zaki ijodi xalqning xalq bo'lib shakllanish va rivojlanish davridan bugungacha bo'lgan bosib o'tgan yo'li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi, aql-zakovatini ko'rsatuvchi o'ziga xos bir madaniyat ko'zgusidir. Ular har bir xalqning qon-qoniga singib ketgan, hayot tarziga aylangan boy ma'naviy merosi, o'lmas qadriyatlari hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining asrlar osha, avlodlar avlodga, tillardan tillarga o'tib, kamol topib kelayotgan o'ziga xos janrlaridan biri bu – xalq maqollaridir. Ular ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Xalq og'zaki ijodidagi har bir janr xalqning intellektual salohiyatini, o'zligini, o'ziga xosligini ko'rsatuvchi vositadir. Masalan, xalq marosimlarida bajarilgan har bir amallar, irimlarda asrlar davomida amal qilib kelingan urf-odatlar, e'tiqodlar yotsa, topishmoqlarda xalqning donishmandligi, donoligi, topqirligi, hozirjavoblighi; qo'shiqlarda xalqning yuraklaridagi orzu-umidlari, intim kechinmalari aks etsa, maqollarda esa xalqning hayot tajribasidan orttirgan saboqlari, xulosalari, inkor etib bo'lmas hayot haqiqati tarzida o'z aksini topadi [6]. Shuning uchun ham ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to'xtalib: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman" – deb yozgan edi. Adib M.Sholoxov esa "Maqol

qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko'chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko'rinmaydi" deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta'kidlaydi [6].

ASOSIY QISM

Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning "Devoni lug'otit turk" asari bunga yorqin misol bo'la oladi. "Devoni lug'otit turk"da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladi, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda [1:34]. Bugungi kunimizdan deyarli ming yil avval yaratilgan ushbu asarida ko'plab maqollardan namunalar keltirgan va xalqimiz ijodida maqol janrining uzoq tarixga ega ekanligini isbotlab bergan. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otit turk"da "savlashmoq" so'zini keltirib o'tgan. Bu "otalar so'zini eslamoq" ma'nosini anglatishi aytiladi. Demak shunday tahmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni "sav" deb ataganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi "masal" tarzida berilgan. Navoiy o'z asarlarining birida "masaldurkim – uyqu o'limdir" deb aytadi. «Masal» atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi ko'p uchray boshladi. Keyinchalik XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llanildi [1:35]. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining e'tiborida bo'lgan O'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin- ketin N.Ostroumov (1895), B. Rahmonov (1924),

Sh.Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B.Karimov (1939), Sh.Rizayev, O'.Azimov, O'.Xolmatov (1941), M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R.Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E.Siddiqov (1976, 1986), B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musoqulov, R.Zarifov (1978), B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, M.Madrahimova (1981, 1984), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. Tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishidagi M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova, H.Karomatov, K.Karomatova, H.Berdiyev, R.Rasulov kabi olimlarning to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y.Chernyavskiy, V.Ro'zimatov (1959), N.Gatsunayev (1983, 1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida nashrdan chiqdi. O'tgan asrda o'nlab maqollar to'plami e'lon qilindi. "O'zbekcha otalar so'zi" (1924), "Maqollar va hikmatli so'zlar" (1939), "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" (1947), "O'zbek xalq maqollari" (1978), "O'zbek xalq maqollari" (2jildlik, 1987-1988) kabilar shular jumlasidandir. Ularni to'plash, nashrga tayyorlash, tadqiq etishda avval Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozzi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzaev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqlulov, R. Zarifov kabi olimlar munosib hissa qo'shdilar. Turli davrlar, turli yillarda bunday to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M.Afzalov boshchiligidagi tayyorlangan to'plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R.Jumaniyozov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B.Rahmonov to'plamiga 564, Sh.Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos. O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik

nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987-1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi. Keyinchalik To'ra Mirzayev, Asqar Musoqulov va Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005-yilda ilgari to'plamlarga nisbatan ancha mukammalroq formada ishlab chiqildi. Kitobda 70 dan ziyod mavzudagi maqollar alfabit tartibi bo'yicha tuzib chiqilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 80-yillarning oxirlarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo'yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirildi. Bu misol ham o'zbek xalqining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini ko'rsatadi. Hech ikkilanmasdan alohida aytib o'tish lozimki, bunday ulkan xazinaga dunyodagi kamdankam xalqlar ega bo'lishi mumkin. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, bironta shoir tabiat inson qattiq ehtirosiga berilgan paytida o'nlab qo'shiq to'qib tashlashi mumkin. Ammo bitta maqolning badiiy jihatdan mukammal tarzda shakllanishi va xalq qalbidan joy olishi uchun o'nlab yoki yuzlab yillar kerak bo'ladi [1:34].

Arab maqol va matallarining o'rganilish tarixi xijriy yilning II asridan boshlangan. Ushbu mavzu haqida mashxur nemis olimi Karl Brokkelman shunday deydi: "Maqol va matallar sharqshunos olimlarni arab adabiyoti yuzaga kelgan kundan boshlab o'ziga jalb etib kelgan; tarixchilar, filologlar maqollarni to'plab, ularning mag'zini chaqishda bir-birlari bilan musobaqalashishgan". Arab tilshunoslik maktablari yuzaga kelgandan so'ng olimlar arab tilidagi so'z boyligini, uning madaniy me'rosi, shu jumladan, maqollarini saqlab qolishga kirishganlar. Arab tiliga chet tillardan yot so'zlarning kirib kelmasligi uchun kurashganlar. Deyarli barcha olimlar hayotlarini maqollar to'plashga baxsh etganlar. Natijada esa, bir necha tomli, arab xalqi ma'daniyati tarixini avloddan-avlodga olib o'tuvchi maqollar to'plamlari paydo bo'lgan.

Arab xalq maqollarining eng qadimgi to'plami Iroqlik (Kufa) tilshunos hamda johiliya davri she'riyatini o'rganuvchi mutahassis Mufaddal ad-Dabi (786-yilda vafot etgan) ga tegishli bo'lgan الأمثال العربية (Arab xalq maqollari) kitobi hisoblanadi. Ushbu asar klassik arab maqollarining eng mashhur to'plami bo'lib, u VII asrga tegishlidir. To'plam 1882- yilda Istantbulda chop etilgan.

Shuningdek, fors olimi Xamza al-Isfaxoniy (961-yillarda vafot etgan) ham arab maqollarini to'plashda salmoqli ishlar bajargan. U asli Erondan bo'lib, Bag'dodda yashagan. Xamza al-Isfaxoniy umrini arab tilini o'rganishga, undagi ma'naviy merosni fors tili bilan solishtirib, ko'pgina ilmiy asarlar yaratishga sarflagan. Uning درة الفخيرة nomli maqollar to'plami Germaniyaning Myunhen kutubxonasida qo'lyozma shaklida saqlanadi. Ushbu kitobning bir qismini yana bir mashxur olim Abu Fadl al-Maydoniy o'zining مجموعة الأمثال nomli maqollar to'plamiga kiritgan. Abu Fadl al-Maydoniy arab dunyosi va folklorini o'rganishdagi mashxur olim bo'lib, asli Eronlik lekin Nishopurda yashab vafot etgan. Yevropalik sharqshunos olim Shayla Vebster Maydoniyning مجموعة الأمثال asari arab xalq maqollari va matallariga bag'ishlangan eng bebaho asar deb ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, muallif o'zining to'plamida arab maqol va matallari yig'ilgan barcha kitoblarni jamlagan. Nemis olimlari K.Brokkelman va I.Goldtsier ham ushbu kitob to'g'risida: "Asarning nusxalari va tarjimai dunyoning barcha kutubxonalarida saqlanadi", deb aytib o'tishgan. Ikki tomidan iborat bo'lgan majmua 6000dan oshiq maqollarni o'z ichiga olib, arab xalqining Islom dinigacha bo'lgan davrlarini ham aks ettiradi. "Majmuatu-l-amsal" 1838-yilda Bonn shahrida uch qismda, 1869- yilda Qohirada Muhammad as-Sabag'a va Muhammad al-Aldaviya boshchiligida chop etilgan. 1982-yilda esa Misrda "Almaktaba al-hayriya" nashriyotida Abu Hilol al-Askariyning "Al Jamxaratu-l-amsal" asari bilan birgalikda ikki qismda nashr etilgan [2:106].

Shu o'rinda Xorazm diyorida chiqqan, arab iliming keng tarqalishida salmoqli hissasini qo'shgan Mahmud az-Zamaxshariyning "Al Mustaqsa min amsali-l-arab" asarini keltirib o'tish joiz bo'ladi. Olim ushbu asarida turli davrlarning hikmatli so'zlari hamda "Kalila va Dimna" dagi ba'zi ibratli hikoyalarini yozib o'tgan.

Maqol va matallarni o'rganish, to'plash va o'rganish bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu erda Mujir ad-Duriyning "Iroq maqollari va so'zlari axloqiy va axloqiy xarakter", Abd al-Latyfa ad-Dileishi "Basrada xalq maqollari", Abd al-Xalik al-Dabbag "Mosul maqollari to'plami", Mahmud Ismoil Sinyiy, Nasif Mustafu Abdul-Aziz, Mustafu Ahmed Sulaymon tuzgan "Arabcha maqollar ensiklopediyasi" bunga misol bo'la oladi. Xanna al-Faxuri o'z to'plamida maqollarni va so'zlarni

arablar tarixidagi muhim davrlar: islomgacha bo'lgan davr "Johiliya", "Abbosiylar davri" kabilar bilan bog'lab o'rgangan.

Arab maqollari va matallarining o'xshashliklari va farqlarini o'rganishga bag'ishlangan asar Iordaniyalik olim, doktor Xani al-Amda tomonidan "Arab millati maqollari" deb nomlangandir. U o'zining to'plamida nafaqat arab mamlakatlarida keng tarqalgan maqollardan foydalangan, balki mintaqaviy dialektal variantlar orasidagi ba'zi tafovutlarga qaramay, leksik jihatdan ularning asosini tashkil etadigan umumiy bo'lgan tomonlarini hamda maqollardagi grammatik o'zgarishlarni o'rganadi [2:107].

Shuningdek, uning «Iordaniya xalq maqollari» deb nomlangan to'plami 1978 yil yanvar oyida Ammonda nashr etilgan. Ushbu asarda alifbo tartibida va raqamlar ostida 1800 dan ortiq maqol va matallar berilgan.

XULOSA

Arab maqollarini chuqur o'rganish va tasniflash bo'yicha yirik asar iroqlik olim Abd ar-Rahmon at-Tikritiyning "Bag'dodning maqollari" (Bag'dod, 1966-1969. 1-4-jild) to'plami e'tirof qilinadi. Bu yerda maqollar va matallarning kelib chiqishi, birlamchi va asl ma'nosi, shuningdek, Johiliya davridagi qadimiy she'riyat yoki boshqa davrlar she'riyatidan olingan va Islomda oldin va undan keyin jamiyatda mavjud bo'lgan davrlarda yuzaga kelgan maqollar o'rganilgan. At-Tikriti maqol va matallarni birinchi bo'lib keng miqyosda o'rgangan umummilliy olim hisoblanadi [2:108]. Misrlik Muhammad Qandil al-Baklining "Arab mamlakatlaridagi xalq maqollarining birligi" kitobi bu sohadagi tadqiqotlarga yana bir urinishdir. (Qohira, 1968). Al-Bakli o'z asarida nafaqat Misr maqollari va maqollarini tushuntiradi, balki ularni boshqa arab xalqlarining paremiyalari bilan taqqoslaydi. Ushbu taqqoslash muallifga bir tomonidan ham ma'naviy ham psixologik faktorlarni ochib berish imkoniyatiga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan davrlar osha muqimligi, uning o'zgarishligini va qadimgi davrga qaytishini namoyish etish imkoniyatini beradi [2:108].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Fadl al-Maydaniy "Арабские пословицы и поговорки" rus tiliga Ilnur Sarbulatov tarjimasini. <http://www.muslima.ru> elektron kutubxonasi.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
4. Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературе // – С.П.: Вестник Санкт-Петербургского Университета, 2012.
5. Sodiqova M. Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqollar lug'ati to'plami. – T.: O'qituvchi, 1993.
6. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – T., 2001.
7. Arab xalq maqollari to'plami. Birinchi qism. Al-Hilol nashriyoti:2003.
8. مكتبة نور مجمع الامثال الجزء الأول
9. Arab xalq maqollari to'plami. Ikkinchi qism. Al-Hilol nashriyoti:2003.
10. مكتبة نور مجمع الامثال الجزء الثاني
11. Library.ziyonet.uz
12. <https://www.muhtwa.com>
13. <http://www.sarf.uralm.com>